



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



THE SPECIFIC FEATURES OF STRICT ADHERENCE TO THE RULES OF PROFESSIONAL ETHICS, ATTORNEY-CLIENT PRIVILEGE, AND THE OATH OF AN ATTORNEY

Nodirbek Jalilov

Independent researcher

*Deputy Head of the Department
of Continuing Education*

*Tashkent State University of Law
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: legal ethics, attorney-client privilege, attorney's oath, professional responsibility, legal morality, principles of justice, professional trust.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This article is dedicated to an in-depth analysis of the specific features of strict adherence to the rules of professional ethics, attorney-client privilege, and the oath of an attorney in legal practice. The article extensively explores the moral foundations of the legal profession and the legal and social significance of ethical norms. Particular attention is paid to the legal and moral aspects of maintaining attorney-client confidentiality, as well as its role in establishing trustworthy relationships with clients. The role of the attorney's oath in fostering professional responsibility and commitment to the principles of justice is also analyzed. In addition, the article discusses how compliance with these rules affects the reputation of the legal profession in society, the stability of the legal system, and the assurance of justice. This article is intended for lawyers, legal scholars, and a wide range of professionals and researchers interested in legal ethics and professional morality.

ADVOKATNING KASB ETIKASI QOIDALARIGA, ADVOKATLIK SIRI VA ADVOKAT QASAMYODIGA QAT'IY RIOYA ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nodirbek Jalilov

Mustaqil izlanuvchi

Uzluksiz ta'lim boshqarmasi

boshlig'i o'rinnbosari

Toshkent davlat yuridik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

МАQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: advokatlik etikasi, advokatlik siri, advokat qasamyodi, professional mas'uliyat, huquqiy axloq, adolat tamoyillari, kasbiy ishonch.

Annotatsiya: Ushbu maqola advokatlik faoliyatida kasb etikasi qoidalariiga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga qat'iy rioya etishning o'ziga xos xususiyatlarini chuqr tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada advokatlik kasbining axloqiy asoslari, etik me'yirlarning huquqiy va ijtimoiy ahamiyati keng yoritiladi. Advokatlik sirini saqlashning nafaqat huquqiy, balki axloqiy jihatlari, shuningdek, uning mijozlar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishdagi roli alohida e'tibor qaratiladi. Advokat qasamyodining professional mas'uliyat va adolat tamoyillariga sodiqlikni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ushu qoidalarga rioya qilish advokatlik kasbining jamiyatdagi obro'-e'tibori, huquqiy tizimning barqarorligi va adolatni ta'minlashdagi ta'siri muhokama etiladi. Maqola advokatlar, huquqshunos olimlar, kasb etikasi va huquqiy axloq masalalariga qiziqadigan keng doiradagi mutaxassislar va tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

ОСОБЕННОСТИ СТРОГОГО СОБЛЮДЕНИЯ ПРАВИЛ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ, АДВОКАТСКОЙ ТАЙНЫ И ПРИСЯГИ АДВОКАТА

Нодирбек Джалилов

Независимый исследователь

Заместитель начальника управления

непрерывного образования,

Ташкентский государственный

юридический университет,

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: адвокатская этика, адвокатская тайна, присяга адвоката, профессиональная ответственность, правовая мораль, принципы справедливости, профессиональное доверие.

Аннотация: Данная статья посвящена глубокому анализу особенностей строгого соблюдения правил профессиональной этики, адвокатской тайны и присяги адвоката в адвокатской деятельности. В статье подробно раскрываются моральные

основы адвокатской профессии, а также юридическое и социальное значение этических норм. Особое внимание уделяется не только правовым, но и нравственным аспектам соблюдения адвокатской тайны, а также её роли в установлении доверительных отношений с клиентами. Также рассматривается значение присяги адвоката в формировании профессиональной ответственности и приверженности принципам справедливости. Кроме того, обсуждается влияние соблюдения этих норм на престиж адвокатской профессии в обществе, стабильность правовой системы и обеспечение справедливости. Статья предназначена для адвокатов, правоведов, а также широкого круга специалистов и исследователей, интересующихся вопросами профессиональной этики и правовой морали.

Kirish

Advokatning kasb etikasi qoidalari huquqiy tizimda adolatni ta'minlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda advokatning halolligi, xolisligi va professional darajasini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Advokat uchun qonuniylik prinsipi kabi kasbiy etika tamoyili ham muhim ahamiyatga ega. Advokat faoliyatida axloqiy me'yorlarni o'rganish va asoslash yanada muhimroq – advokatlik kasbining ijtimoiy ahamiyati qanchalik aniq oshsa, advokat – jamoat arbobiga qo'yiladigan ma'naviy talablar shunchalik yuqori bo'ladi .

Advokatning kasb etikasi qoidalari huquqiy tizimning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Adolatga erishish jarayonida advokatning xulq-atvori va professional yondashuvi fuqarolar ishonchini mustahkamlaydi. Bu qoidalar advokatlik faoliyatida shaxsiy manfaatlarni chetga surib, yuksak axloqiy tamoyillarga asoslanishni talab qiladi.

Jamiyatda advokat muhim va mas'uliyatli rolni bajarishi tufayli u muayyan kasb va etika mezonlariga javob berishi lozim va bu mezonlar har qanday fuqaroga

qo'yiladigan mezonalardan ancha yuqoridir. 1990-yil avgustida BMTning jinoyatlarni oldini olish bo'yicha VIII Kongressida qabul qilingan "Advokatlar roli to'g'risidagi qoidalari"ning 12-bandida shunday deyilgan: "Odil sudlovning muhim ishtirokchilari hisoblangan advokatlar o'z kasblarining sha'ni va qadr-qimmatini tutib turishlari lozim .

Asosiy qism

O‘zbekistonda advokatlarning kasb etikasi qoidalariga rioya ta’minlash advokatlik faoliyatining eng muhim ustovor prinsiplaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida” gi Qonunining 2-moddasida “Advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga qat’iy rioya etish” advokatlik faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida ko‘rsatilgan.

O‘zbekistonda advokatlarning kasb etikasi qoidalariga rioya etilishini ta’minlash huquqiy tizimning adolatli ishlashi va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun muhim ahamiyatga ega. Buning bora keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Bilimi yetmasligi, o‘zining kasbiy majburiyatlariga vijdonsiz munosabatda bo‘lishi sababli advokatlar tomonidan Advokatlarning kasb etikasi qoidalari talablari, advokatlik siri va advokat qasamyodini buzish hollari ko‘plab uchramoqda, bu esa ishonch bildiruvchilarning (himoya ostidagilarning) noroziligiga sabab bo‘lmoqda .

Yevropa Ittifoqi a’zo davlatlarning qabul qilgan Kasbiy Etika Kodekslarining asosiy asosi mustaqillik tamoyillari va advokatlar uchun ayrim faoliyatlarning noqonuniyligi (advokatning professional faoliyati uning maqomiga zid bo‘lmasligi) hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi a’zo davlatlarining qonunchiligi va ularning hududida faoliyat yuritadigan advokatlar assotsiatsiyalari normativ hujjatlari umumiy ish tajribasini va advokatlar uchun ayrim faoliyatlarning noqonuniyligi haqidagi tushunchalarni turlicha aniqlashda farqlanadi, bu o‘zgaruvchanliklar aniq bo‘lishdan butunlay taqiq qo‘yish yoki ba’zi boshqa faoliyat turlari bilan advokatlik faoliyatini birlashtirish imkoniyatiga qadar farq qiladi, va aksariyat hollarda faqat advokat mustaqillik prinsipiga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Advokat o‘z majburiyatlariga beparvo yondashsa, bu nafaqat ishonch bildiruvchi (mijoz), balki umumiy huquqiy tizimga zarar yetkazadi. Advokat qasamyodi uning kasbiy mas’uliyatini anglatadi. Uni buzish advokatning qonun oldidagi mas’uliyatini kamaytirmaydi, balki bu holatda intizomiy yoki jinoiy javobgarlik belgilanishi mumkin. Advokat o‘z mijozining manfaatlarini himoya qilishda barcha huquqiy vositalarni samarali qo‘llashi va maxfiylikni ta’minlashi kerak.

Dunyoning mashhur advokatlaridan biri M.Y.Barshevskiy advokatlik kasbining 3 ta asosiy tamoyilini ajratib korsatadi: halollik, layoqatlichkeit, vijdoniylilik .

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, advokatlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqaligina ushbu sohaning jozibadorligiga erishish mumkin. Advokatning o‘z kasbini mustaqil va dadil pozitsiyada amalga oshirishi orqali bu sohaga malakali va

raqobatbardosh kadrlar keladi. Bu esa fuqarolarga ko'rsatilayotgan yuridik yordam sifatiga bevosita bog'liqdir

Yurisprudensiyada vijdonli advokat sifatida obro'ga ega bo'lish advokatning mavaffaqiyatlari karyerasida muhim rol o'ynaydi. Bunda advokatning o'z kasb etikasiga amal qilishi muhim talablardan biridir. Advokat butun jamiyat oldidagi o'z majburiyatlarini anglagan holda faqat advokatlik faoliyatini amalga oshirayotgandagina emas, balki kundalik hayotda ham kasbiy etika qoidalarini unutmasligi lozim .

Yuridik adabiyotlarda ko'pgina olimlar tomonidan "advokatning kasb etikasi qoidalari" va "advokatlik kasbi qoidalari" tushunchalari bir xil ma'noga ega, deya tariflanadi. Ammo bu ikki tushuncha bir-biridan tubdan farq qiladi. Kasb etikasining predmeti bu odob-axloqdor, u insonning ma'naviy fazilatlarida namoyon bo'ladi .

Advokatning kasb etikasi qoidalari qabul qilish zarurati, birinchi navbatda, advokatlikning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq hisoblanadi.

Y.S. Pilipenkoning fikrlariga qo'shilgan holda "... jamoat birlashmasi sifatida advokatlik kasbining ham, har bir advokatning ham mavjudligining belgilovchi asosiy maqsadadolat va xalqqa xizmat qilishdir. Bu axloqiy tamoyilsiz bo'lishi mumkin emas. Advokatlik faoliyatidagi axloq huquqiy bilimlar miqdori advokatning kasbiy bilimlaridan kam rol o'ynamasligini inkor etib bo'lmaydi .

Xulosa

Yuridik yordam ko'rsatishning umumiyl prinsiplarini va advokatlik faoliyatini belgilovchi huquqiy hujjatlar guruhida ma'naviy-axloqiy me'yorlar va standartlarni belgilashga urg'u beradigan hujjatlar kichik guruhi ajralib turadi.

Advokatlarning axloqiy qoidalari belgilovchi birinchi xalqaro hujjat

1956-yilda Xalqaro advokatlar uyushmasi tomonidan qabul qilingan Xalqaro axloq kodeksi edi. Kodeksning o'ziga xos xususiyati shundaki, u advokatlik faoliyati uchun muayyan standartlarni yaratish orqali milliy kasbiy axloq kodeksining muhimligini ta'kidlaydi. Xalqaro axloq kodeksi normalari turli mamlakatlar advokatlarining o'zaro munosabatlarini, shuningdek, chet davlatda yuridik yordam ko'rsatishda advokatning to'g'ri xulq-atvorini tartibga soladi.

Advokatlar kollegiyasining roli va advokatlik kasbining mustaqilligi standartlarida aks ettirilgan axloqiy xulq-atvor va intizom talablarini inobatga olgan holda Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasining Advokatlar uchun umumiyl axloqiy prinsiplari ni qabul qildi. Umumiyl qabul qilingan professional standartni yaratish Bosh tamoyillarning asosiy maqsadi bo'lib, u 12 ta tezisdan iborat. Ular yuridik yordam ko'rsatishda advokatlarga rahbariy g'oyalarni o'zida mujassamlaydi.

Uning o‘ziga xos axloqiy qoidalari to‘plami – Yevropa hamjamiyatidagi advokatlarning xulq-atvor kodeksi Evropa Ittifoqining advokatlar va yuridik jamiyatlari kengashi tomonidan qabul qilingan.

Qiyo slash uchun aytishimiz mumkinki, Rossiya Federatsiyasi yuridik hamjamiyatning eng muhim korporativ akti Advokatlarning kasbiy etikasi kodeksi hisoblanadi. Ushbu hujjatning advokatlik faoliyati uchun muhim ahamiyati nafaqat uning yuridik hamjamiyat tomonidan qabul qilinganligi, balki Advokatlarning kasbiy etikasi kodeksi axloqiy va manaviy xarakterdagi normalarni o‘z ichiga olganligi bilan ham bog‘liq.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жамиева Р.М. Тактика профессиональной защиты по уголовным делам: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Алматы, 1999. С. 17.
2. <https://www.un.org/en>.
3. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi 721-I-son Qonuni, (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 1-son, 12-modda, 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son)
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.05.2018-y., 06/18/5441/1210-son)
5. Advokatura. Darslik. D.Nurumov, A.Matmurotov. TDYU 2021. 55-b
6. Advokat stajyoriga nisbatan kasb etika qoidalarini tatbiq etilishi, Xomidova Sarvinoz Yusup qizi, INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference, 450-b
7. О соотношении понятий «Профессиональная этика адвоката» и «Правила адвокатской профессии». Научная статья по специальности «Право». Федосенко Ю. В., 2011
8. Научно-практический комментарий к Кодексу профессиональной этики адвоката / Ю.С. Пилипенко. 3-е изд., перераб. и доп. М.: Норма, 2016. С.12.
9. International Code of Ethics of the International Bar Association, adopted in 1956 // URL: <http://www.rospravo.ru/files/sites/5fa10a5f754748c6f46e48645bce0747.pdf>
10. General Principles for the Legal Profession adopted by the International Bar Association on September 20, 2006 in Chicago // URL: <http://advokpalata-Lru/urbanleft/osnovyepruristovhtml>
11. Code of Conduct for Lawyers in the European Community, adopted by the Council of

Bars and Law Societies of the European Union in Strasbourg on 28 October 1988.// URL:
<http://law.edu.ru/norm/norm.asp?normID=1290180>

12. Кодекс профессиональной этики адвоката, принят Первым Всероссийским съездом
адвокатов 31 января 2003 г. [Электронный ресурс] // URL:
<http://fparf.ru/documents/normative Acts/1059/>